BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ITIMOIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Safarov Botir Norboyevich
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqola umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy-pedagogik, ilmiy asoslarini yaratish va ularni amaliy faoliyatga joriy etishda texnologiyalarni ishlab chiqishni takomillashtirishga qaratilgan fikrlar birlamchi manbalarga asoslanib tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar. *Innovatsiya, texnologiya, hamkorlik, zamonaviy ta’lim va tarbiya, tarbiyachilar, maktablar, o‘qituvchilar, ta’lim muassasalari.*

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. [1,30]

Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, yani pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchining birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o‘quvchining dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- o‘quvchilarni o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo‘lishini ta’minlashi;
- o‘quvchining bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va o‘quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – bu o‘qituvchi va o‘quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog‘liq deb hisoblaymiz, ya’ni o‘qitish jarayonida, maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo‘llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida o‘quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o‘zlari xulosa qila olsalar, o‘zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o‘qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni faol qo‘llash, ta’lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O‘quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o‘stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O‘qituvchi darsda boshqaruvchi o‘quvchilar esa,

ishtirokchiga aylanmog‘i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko‘p qirrali samara keltiradi.

Boshlang‘ich ta’lim umumta’lim maktablarining bosh bo‘g‘ini bo‘lgani sababli ana shu jarayonda o‘quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko‘proq e’tibor berish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mas’uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo‘ygan o‘quvchilarni maktab hayotiga ko‘niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo‘l ochib beradilar. Bolalarning o‘qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining vazifasi mas’uliyatli ekanligini ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinfda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o‘qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda ko‘proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o‘yin mashqlardan foydalanib, darslar o‘tish yaxshi samara beradi. Ko‘proq atrof-muhit bilan bog‘lab o‘tilgan mashg‘ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O‘qitish jarayoni o‘qituvchi hamda o‘quvchilar faoliyatini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining faoliyati o‘quv materialini bayon qilish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e’tiqodini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O‘z ishiga ixlos bilan qaragan o‘qituvchida chinakkam ehtiros bo‘ladi.

Ma’lumki, har bir dars mavzusini o‘rganishda o‘ziga xos texnologiya, usul va vositalarni tanlashga to‘g‘ri keladi. O‘qitish jarayonida yuqori natijaga erishish uchun dars jarayonini oldindan ketma- ketligini mo‘ljallash kerak bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi predmetning o‘ziga xos tomonlarini, o‘quv jarayonini va sharoitini, o‘quvchilarning ehtiyojini va imkoniyatlarini, bilim saviyasini, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiyalarni tanlashi lozim [1,56].

Bu jarayon o‘z-o‘zidan bo‘lishi mumkin emas, uni boshqarish kerak. Ozhegova yangining quyidagi ta’rifini beradi: yangi - birinchi bo‘lib yaratilgan yoki qilingan, paydo bo‘lgan yoki yaqinda paydo bo‘lgan, oldingi o‘rniga, qayta kashf etilgan, yaqin o‘tmish yoki hozirgi bilan bog‘liq, yetarlicha tanish bo‘lmagan, kam ma’lum. Shuni ta’kidlash kerakki, atamaning talqini progressivlik, yangining samaradorligi haqida hech narsa aytmaydi. Pedagogik jarayonga kelsak, innovatsiya deganda o‘qitish vatarbiyalashning maqsadlari, mazmuni, usullari va shakllariga yangi narsalarni kiritish, o‘qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish tushuniladi. Pedagogik innovatsiya -pedagogik faoliyatdagi yangilik, o‘qitish va tarbiya mazmuni va texnologiyasini o‘zgartirish, ularning samaradorligini oshirishdir. Shunday qilib, innovatsion jarayon yangining mazmuni va tashkil etilishini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Umuman olganda, innovatsion jarayon deganda innovatsiyalarni yaratish (tug‘ilishi, rivojlanishi), ishlab chiqish, foydalanish va tarqatish bo‘yicha kompleks faoliyat tushuniladi. Innovatsiyalar qaysi mezon bo‘yicha bo‘linishiga qarab turli xil turlari mavjud. Ta’lim tizimini rivojlantirishda innovatsion jarayonlar quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi: yangi ta’lim mazmunini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, yangi turdagi ta’lim muassasalarini yaratish. Bundan tashqari, bir qator ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari pedagogik fikr tarixiga aylangan yangiliklarni amaliyotga joriy etish bilan shug‘ullanmoqda. Masalan, XX asr boshidagi muqobil ta’lim tizimlari M. Montessori, R. Shtayner va boshqalar. Hozirgi vaqtda maktab ta’limida turli xil pedagogik innovatsiyalardan foydalanilmoqda. Bu, birinchi navbatda, muassasaning an’analari va maqomiga. Shunga qaramay, eng xarakterli innovatsion texnologiyalar quyidagilardir [3, 145].

1. Fanlarni o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT). 2. Fanni o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar. 3. Ta’lim jarayonini axborot-tahliliy ta’minlash va maktab

o‘quvchilari ta’lim sifatini boshqarish. 4. Intellektual rivojlanish monitoringi. 5. Ta’lim texnologiyalari zamonaviy talabani shakllantirishning yetakchi mexanizmi sifatida. 6. Didaktik texnologiyalar ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonini rivojlantirish sharti sifatida. 7. Maktab ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishni psixologik-pedagogik ta’minlash. Ayrim innovatsiyalardan foydalanishni ilmiypedagogik asoslash nazarda tutilgan. Ularning uslubiy kengashlarda tahlili, seminarlar, sohaning yetakchi mutaxassislari bilan maslahatlashuvlar. [5.25]

Shunday qilib, zamonaviy maktab tajribasi pedagogik innovatsiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashning eng keng arsenaliga ega. Ularni qo‘llash samaradorligi ta’lim muassasasida o‘rnatilgan an’analarga, professor-o‘qituvchilarning ushbu yangiliklarni idrok eta olishiga, muassasaning moddiy-texnik bazasiga bog‘liq. Bugungi kunda ko‘plab o‘qituvchilar maktabda ta’lim samaradorligiga erishish uchun zamonaviy texnologiyalar va innovatsion o‘qitish usullaridan foydalanmoqda. Bu usullar o‘qitishda qo‘llaniladigan faol va interaktiv shakllarni o‘z ichiga oladi. Faol talabaning o‘qituvchiga va u bilan birga ta’lim oladiganlarga nisbatan faol pozitsiyasini ta’minlaydi. Dars davomida ular darslik, daftar, kompyuter, ya’ni o‘qitish uchun foydalaniladigan individual vositalardan foydalanadilar. Interfaol usullar tufayli boshqa talabalar bilan hamkorlikda bilimlarni samarali o‘zlashtirish mavjud. Shubhasiz, innovatsion o‘qitish usullari an’anaviy usullardan afzalliklarga ega, chunki ular bolaning rivojlanishiga hissa qo‘shadi, uni bilish va qaror qabul qilishda mustaqillikka o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.SH.M.Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017-yil, 592 bet.
2. SH.M.Mirziyoyev “Maktabgacha ta’lim tizmi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari” to‘g‘risidagi PF-5198 son farmoni 30.09.2017-yil, 7-8-bet.
3. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova “Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari” – Toshkent, O‘zPFTTI nashriyoti, 2015-yil, 198-bet.
4. Muslimov N.A. “Bo‘lajak kasb ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish” /Monografiya.– Toshkent.:Fan, 2004-yil, 360 bet.
5. Sayidahmedov N.”Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. – Toshkent: “Fan va texnalogiya”- 2003-yil, 340 bet.
6. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov “Umumiy pedagogika” – Toshkent, “Fan va texnalogiya” nashriyoti, 2018-yil, 530 bet.
7. Safarov, B.N. (2022 yil, noyabr). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik kouchingni toshkil etishning dolzarbligi. 21- asrda innovatsion ta’limning o‘rni va ahamiyatiga bashlangan xalqaro konferensiyada (1-jild, 8-son, 30-35-betlar).
8. Safarov, B. (2021). 6-7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda matematika mashg‘ulotlarini axamiyati: 6-7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda matematika mashg‘ulotlarini ahamiyati. Maktabgacha ta’lim jurnali, 2 (2).